


KAPITAL BOZORI BARQARORLIGIDA INSTITUTSIONAL INVESTORLARNING ROLI

Sardor Omonov
*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
dotsenti v.b., PhD*


O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda hamda korporativ tuzilmalarni moliyalashtirishda mamlakatimiz kapital bozorini rivojlantirish hamda mazkur bozorda institutsional investorlar faolligini oshirish qator imkoniyatlar taqdim etadi. Biroq, kapital bozorini rivojlantirish hamda istitutsional investorlarning kapital bozoridagi faolligini oshirish bo'yicha qator muammolar mavjud. Kapital bozorining joriy holatini yaxshilashda aksiyalar va obligatsiyalar emissiyasini oshirish, kompaniyalarning investitsion jozibadorligini oshirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim.



1-rasm. Uzoq muddatli korporativ obligatsiyalar ta'minoti sifatida sug'urta polislardidan foydalanish amaliyoti¹¹¹

AQSh hamda Buyuk Britaniya amaliyotida kapital bozorini rivojlantirish hamda kapital bozoridagi emission faoliyatni kengaytirish maqsadida uzoq muddatli korporativ obligatsiyalar ta'minoti sifatida sug'urta polislardidan foydalanish amaliyoti (bond insurance) yo'lga qo'yilganligini kuzatish mumkin (2-rasm). Mazkur jarayonda emitent hamda sug'urta kompaniyasi belgilangan majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

¹¹¹ Muallif ishlanmasi



2-rasm. Mamlakatlarda erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlarning YaIMga nisbatan bozor kapitallashuvi (2023-yil)¹¹²

O'zbekiston kapital bozorida institutsional investorlar vositachilik faoliyatini rivojlantirish milliy kapital bozorini rivojlantirishga imkon beradi. Xalqaro amaliyotda tijorat banklari kapital bozorida vositachilik faoliyatining turli shakllarini kuzatish mumkinligi, biroq milliy amaliyotimizda bunday amaliyotlar yetarlicha amalga oshirilmayotganligi O'zbekiston kapital bozorida anderryting faoliyatini rivojlantirishda chet el banklari va investitsiya vositachilari xizmatlaridan foydalanish hamda vositachilik xizmatlarini tashkil etishning muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. "Asakabank" AJ misolida aytish mumkinki, 2022 yil 1 noyabrda "Asakabank" AJ xorijiy investor sifatida mahalliy bozorda ishtirok etgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga 10 mlrd. so'mlik qiymatdagi davlat qimmatli qog'ozlarini sotib olishda brokerlik xizmatini ko'rsatgan hamda O'zbekiston Respublika valyuta birjasi auksion savdolarida davlat qimmatli qog'ozlar bozori tarixida birinchi bitimini amalga oshirgan. Natijada, tijorat banklarining investitsion vositachilik faoliyati samaradorligini oshirish asosida kapital bozorida aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari kabi moliyaviy instrumentlarning muvaffaqiyatli joylashtirilishga muvaffaq bo'lingan. Bu orqali xorijiy investorlar uchun mahalliy kapital bozorida chiqarilgan O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlarini olish va sotish imkoniyati yaratilgan. Mazkur amaliyotlarni mahalliy kapital bozorida keng qamrovda qo'llash va tijorat banklari uchun mavjud ijobjiy tomonlarini inobatga olish lozimligini ta'kidlash lozim.

Mamlakatimiz tijorat banklari tarkibida davlat ulushi mavjud tijorat banklari soni ko'pligini inobatga olgan holda mazkur banklarning kapital

¹¹² <https://deponet.uz/uz/page/kvartalnye-otchety> - O'zbekiston Respublikasi Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ma'lumotlari

bozoridagi ishtirokini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Xususan, davlat ulushi mavjud tijorat banklari tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi faoliyatini samarali yo'lga qo'yish zarur. Bu orqali kapital bozorida tijorat banklarining vositachilik faoliyati yo'lga qo'yiladi va institutsional investorlar faolligini oshirish imkonini paydo bo'ladi.

Xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda milliy amaliyotimizda ham emitentlarning moliyaviy texnologiyalardan foydalanishlarini kengaytirish maqsadida tijorat banklarining kapital bozorida moliyaviy risklarni kamaytirish, investitsion kraudfanding, robo-maslahatchi, onlayn moliyaviy konsalting kabi faoliyatlarini yo'lga qo'yish zarur.

Tijorat banklarining kapital bozoridagi tajribasi va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan kapital bozorida faoliyat yuritish, kapital bozori instrumentlari (aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar)dan samarali foydalanish bo'yicha strategik maslahatlar berish xizmatlarini yo'lga qo'yish zarur. Xususan, 2022 yil 1 noyabrda xorijiy investor sifatida Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga "Asakabank" AJ tomonidan brokerlik xizmati ko'rsatildi va mazkur amaliyot O'zbekiston Respublika valyuta birjasi auksion savdolarida davlat qimmatli qog'ozlar bozori tarixida birinchisi bo'ldi. Natijada, xorijiy investorlar uchun ichki kapital bozorida chiqarilgan O'zbekiston Respublikasining davlat qimmatli qog'ozlarini olish va sotish imkoniyati yaratildi. Mazkur amaliyotni boshqa tijorat banklari faoliyatiga ham tatbiq etish kapital bozorida tijorat banklari faolligini oshirish bilan bir qatorda mahalliy kapital bozoriga xorijiy investorlarni ham jalg qilish imkonini beradi.

Mamlakatimiz kapital bozorida institutsional investorlar faolligini oshirish uchun investor yoki moliyaviy vositachi sifatida xorijiy institutsional investorlarni jalg etishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shuning uchun xorijiy institutsional investorlar, xususan, chet el banklari va investitsiya vositachilari uchun mahalliy kapital bozorida ishtirok etish uchun sharoit yaratish lozim. Jumladan, chet el banklari va investitsiya vositachilari bilan hamkorlikda mahalliy institutsional investorlarning qimmatli qog'ozlar bo'yicha kapital bozorida vositachilik faoliyatini, xususan, anderryting faoliyatini keng qamrovda tashkil etish zarur.

PROSPECTS FOR INCREASING INVESTMENTS IN UZBEKISTAN

*Salokhiddinov Jaloliddin
doctoral candidate
At The Banking and Finance Academy*

Annotation: This article explores the factors driving foreign direct investment (FDI) in Uzbekistan and analyzes its impact on the country's economic growth. It examines the historical trends of FDI inflows, the role of government policies in attracting investment, and the challenges and opportunities facing